

## BADIIY ASARLARNI EKTRANLASHTIRISH: O‘ZBEK KINO SAN’ATINING ILK QADAMLARI

*Sodiqov Elyor Turdibekovich*

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti*

*Xalq ijodiyoti fakulteti dekani*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek kinomotografiyasining shakillanishi o‘ziga hos maktab bo‘lib, Turkiston o‘lkasi bo‘ylab olingan kinolarda o‘sha davir, zamon ruhini, nuqson va kamchiliklarni katta mahorat va qahramona ko‘rsatildi va tomoshabinlarga yetkazilganligiga ahamiyat qaratilgan. Bizgacha yetib kelgan ilk o‘zbek kinosida ko‘tarilgan fikr, g‘oyalar, siyosiy ko‘rinishdagi johilliklar kabi tuyg‘ularni mohirlik bilan ko‘rsatilganligini maqola davomidagi kino va taxlil qismida kengroq yoritib, tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** kino, san’at, adabiyot, obriz, teatr, kinomotografiya, film, sahna.

**Аннотация:** В статье акцентируется внимание на становление узбекского кинематографа, который представляет собой уникальную школу, а фильмы, снятые по всему Туркестану, с большим мастерством и героизмом показали дух той эпохи, раскрыли пороки и недостатки и донесли до зрителя. Первое дошедшее до нас узбекское кино умело показывает мысли, идеи и чувства невежества в политической форме.

**Ключевые слова:** кино, искусство, литература, обрив, театр, кинематография, кино, сцена.

**Abstract:** The article focuses on the formation of Uzbek cinema, which is a unique school, and films shot throughout Turkestan showed the spirit of that era with great skill and heroism, revealed the vices and shortcomings and brought them to the viewer. The first Uzbek cinema that has come down to us skillfully shows thoughts, ideas and feelings of ignorance in a political form.

**Keywords:** cinema, art, literature, image, theater, cinematography, cinema, stage.

Kinomatografiyada adabiyot eng muxim o‘rin egallaydi. Adabiy asrning to‘g‘ri tanlanishi va uni to‘laqonli ekrandagi namoyishi ham doyim o‘z ma‘romiga yetkazilmasligi gohida to‘qima obrizlar va qo‘shimcha ma‘lumotlar qo‘yilishiga sabab bo‘ladi. Adabiyot san’at sohasida eng muxim o‘ringa ega: adabiyotshunoslik, teatr, tasviriy san’at va hatto boyitilib yozilgan shunday asarlar bor-ki, ular asnosida me‘morchilikning ravnaqiga hizmat qilgan. Har qanday turdagi filmlarining yaratilishida badiiy-dramatruhiyaning shrni katta bo‘lib, ko‘plab qiziqarli stinariylar,

hujjatli filmlar yaratilish asosidir.<sup>1</sup> Ularda har bir gavdalanadigan sahna. Dialoglar ketma-ketligi, holat, his-xayajon, qahramonlar harakteristikasi ochib beriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki ko‘pincha kino senariylar adabiy asarlar negizida yaratiladi. Filmga badiiy adabiyotni moslashtirish bu - manbani qayta hikoya qilish, balki kino va boshqa san‘at asarlar (nasr, dramaturgiya, she‘riyat, qo‘shiq, opera va baletlari) yordamida yangicha yoki aynan o‘zini talqin qilishdir.

Filmga badiiy asarni moslashtirishda rejissyor ikkinchi darajali hikoyalar, tafsilotlar va epizodik qahramonlardan voz kechishi yoki aksincha, ssenariyga asl asarda bo‘lmagan, ammo rejissyorning fikriga ko‘ra, asarning asosiy g‘oyasini kinematografiya orqali yaxshiroq ochib beradigan epizodlarni qo‘shishi mumkin. Aynan adabiy asarlar kino tushunchasi paydo bo‘lganidan beri ekran tasvirlarining asosiga aylangan. Ilk ekranlashtirishlardan kinematografiya asoschilari Jorj Meles, Viktorina Jasse, Lui Feyadning, Svift, Defo, Gyote asarlarini ekranda namoyish etilgan. Shuni alohida takidlash kerakki, bu asarlar davr muhitini, asosiy g‘oyalarin aks ettirish uchun bir qator o‘zgarishlarni (qahramon harakteri, libos, sahna loyihasi) ochib beriladi. Ilk ekron yuzini ko‘rgan kinomatografik asarlardan biri, Fransiyadagi qisqa metrajli “Ichkilik qo‘rboni” filmi bo‘lib, u 1902 yil rejisser Fernan Zak tomonidan Emil Zolning “G‘arbiy” romani asosida ishlangan. Fransuz yozuvchisining bu mavzudagi asari aynan botqoqlik sari yuzlanayotgan eng dahshatli illat va keltirib chiquvchi oqibatlarini ko‘rsatib berib, xushyorlikka chorlov vazifasini o‘tashi kerak edi. Eng qizig‘i shundaki g‘arb rejisseri rus yozuvchilar asarlarini ham katta ekranga chiqarishadi. Masalan, 1907 yilda bolalar rejisseri Viggo Larsen, 1909 yilda mashhur amarikalik Evid Uork Griff va 1910 yilda fransiyalik Andr Kalmettlar tomonidan ishlangan filmlar L.N.Tolstoyning “Yakshanba” (Voskresenie) asarini katta ekranga olib chiqadi. 1916 yil boshlariga kelib, umumjahon kinomatografiya olami hisobotini o‘rganishda qarib 250 ga yaqin adabiy asarlar katta ekranga chiqarildi.

1919 yilda Turkiston o‘lkasi halq maorif komissarligi tomonidan kino-foto bo‘limini tashkil etish haqida qaror qabul qiladi. 1920 yilga kelib turkuiston o‘lkasi bo‘ylab kino tarmoqlar soni 59 taga, 1921 yilda 70 taga yetkazildi. Bu davrdagi filmlar qisqa metrajli bo‘lgan.<sup>2</sup> 1925 yil O‘zbekiston xalq komissarlari Sovetining qaroriga binoan O‘zbekiston Davlat kino tashkiloti haqidagi Nizom tasdiqlandi. Nizomda mazkur tashkilotning O‘zbekiston hududida hizmat o‘taydigan Davlat kino idorasi ekani tasdiqlanadi. O‘zbekiston Davlat kino tashkilotining vazifasi badiiy va hujjatli filmlar shilab chakarish, shuningdek kino tarmoklarini kupaytirish, filmlarni prokat tayyorlash va shu soxada madaniy-mayishiy ishlar tashkil etishdan iborat eli.

<sup>1</sup> Алиев Мухсин. Кино асослари. Т.: Ўқитувчи, 1993. 13-бет.

<sup>2</sup> Б.Ахмедов. Телевизионное кино Узбекистана. Т-2009. 28-ст.

Shu tariqa “Buxkino”, “Vostokkino”, “Turkgoskino” singari mayda tashkilotlar tugatilib, yagona Davlat kinosi “O‘zbekgoskino” ish ko‘rsata boshlaydi. “O‘zbekgoskino tashkilotchilari va ijodkorlari oldida murakkab vazifalar turardi. Avvalo, kinoteatrlarning repertuarlari ko‘ngildagidek emas edi. Ekranlarla asosan “Robin Gud”, “Bag‘dod. o‘g‘risi”, “Hind tobuti” singari oldi-qochdi horijiy filmlar namoyish qilinardi. Bu filmlar ommannig etiborini muhim ishlardan chalg‘itishga xizmat qilardi, “O‘zbekgoskino” prokat va reklama ishlarini yo‘lga qo‘ydi. Ekranlarda ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi filmlar namoyish qilina boshladi. O‘sha yillari sovet kino sanatinnig faxri bo‘lgan S. Eyzenshteynning “Potyomkii bronenosesi”, A. Pudovkinning “Ona” filmlari, shuningdek, “Nomus”, “Ayiqlik to‘ri”, “Shaharlar va yo‘llar” singari filmlarning namoyish qilinishi, buning ustiga filmlarda o‘zbekcha yozuvning paydo bo‘lishi katta ahamiyat kasb etdi.

Davlat kinosi ish boshlagan kezlarda maxalliy kadrlar deyarli yo‘q edi. O‘zbek kinosini rivojlantirishga rus va boshqa qardosh xalqlar kinematogriflarning xissalari katta. Ulardan K. Gertel, V. Viskovskiy, D. Bassaligo, V. Sobberoy singari tajribali rejisserlar, ssenariychilar, operatorlar va akterlar bor edi. Ular dastlavki o‘zbek filmlarini yaratish bilan birga maxalliy kadrlar tayyorlashda ham yordam ko‘rsatdilar. “O‘zbekgoskino” 1926 yilda va undan keyinroq suratga olgan filmlarda keyinchalik taqdirini batamom o‘zbek kino sanati bilan bog‘lagan, kino sanatimiz taraqqiyotiga ulkan xissa qo‘shgan kishilarning nomlarini uchratish mumkin. Bular orasida Nabi G‘aniev, Malik Qayumov, Sulaymon Xo‘jaev, Komil Ermatov, Yo‘ldosh Azamov, Rahim Pirmuhamedov, Ergash Hamroev, Sobirjon Iskandarov, Boriy Xaydarov, Mirshohid Mirokilov singari rejissyorlar, aktyorlar va operatorlar bor edi. O‘zbek kino san‘ati tarixiniig ma‘lum bosqichi mazkur namoyondalarning ijodi bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbek kinosi o‘sha davrdan buyon sarmazmun va sharafligi yo‘lni bosib o‘tdi. Bu davr ichida u o‘zini, ulg‘aydi va olamga mashhur bo‘ldi. O‘zbek kino san‘ati ana shu yillar mobaynida ellardan-ellarga, dillardan-dillarga o‘tib, o‘z ijodkorlariga tengsiz sevinib, quvonch bag‘ishladi. “Alisher Navoiy”, “Toxir va Zuxra”, “Nasridinni sarguzashtlari”, “Osnyo ustida buron”, “Toshkent — non shaxri”, “Ulug‘bek yulduzi”, “O‘tgan kunlar”, “Sevishganlar”, “Sen yetim emassan”, “Leningardliklar-jigarbandlarim”, “Favqulotda komissar”, “Abu Rayxon Beruniy”, “Muxabbat va nafrat”, “Alibobo va qiriqlik qaroqlik”, “Uzun va qisqa xayot”, “Olovli yo‘llar”, “Odamlar tashvishida”, “Qo‘qon vokeasi”, “Chinor” kabi o‘nlab filmlar. Bolgariya, Ruminya, Germaniya, Polsha, Yugoslaviya, Mo‘g‘iliston, Angliya, Fransiya, Italiya, Daniya, Yaponiya, Pokiston, Xindiston, Turkiya singari mamlakatlarda zo‘r muvaffaqiyat bilan namoyini qilindi.

Bu yutuqlarning xammasi o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritiltani yo‘q. Respublika

xukumatining rag‘barligi va doyimiy g‘amxurligi kino xodimlariga kuch-kuvvat barishlab, ularni yangi-yangi zafarlar sari boshladi. Filmlarning asosiy yutuqlari aktyorlarning qahramonlariga to‘g‘ri tanlanganligi. Qahramondagi xis-tuyg‘ular, kechirmalar, zamon voqiyliklarini ochib bera olish kabi yuksak tajriba bilan tomoshabinga yetkazilishi kino saviyasini baholashda katta hissa qo‘shdi. Mahoratli aktyorlarning qarashlari, hatti-xarakatlari-yu, kayfiyati, atrof-muhit kabi bir qator jarayonlarni operatorning maxoratisiz erishish qiyin edi. Kino sarviyasiining yuqori baholanishda albatta rejissyorning ham mahorati beqiyosdir. Bundan ko‘rinib turibdiki kuchli mutaxassislardan jamoa tashkil topgani va ular bir guruh, oila kabi faoliyat olib borishgani sezilib turadi.

Film boshlanishida yoki oxirida (ayrim filmlarda prologdan so‘ng) o‘nlab ijodiy va ishlab chiqarish xodimlarining ism-familiyalarini o‘qiymiz. Bular film ijodkorlari — ssenariy muallifi, rejissyor, operator, musavvir, bastakor, ijrochi aktyorlar, mamuriy xodimlar, ijodiy kuchlarning yordamchilari, assistentlar va boshqa xodimlardir.

Film yaratilishida, yuqorida znkr etilgan ijodi xodimlardan tashqari, yana o‘nlab ishchi va xizmatchilar ishtirok etadilar. Xar qanday film yaratilishida ularning xar biri o‘ziga yarasha xissa qo‘shadi. Quynda ana shu ijodiy ishlab chiqarish xodimlarining film yaratishdagi o‘rni va vazifalari bilan tanishamiz.

Kino — sintetik sanat hisoblanib, uning asosini adabnyot, yani ssenariy tashkil etadi. Badiiy ssenariyda bo‘lajak filminig g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi va obrazlar yig‘indisi o‘z aksini topadi. Demak, ekranda talqin etishga mo‘ljallab yozilgan badiiy asar ssenariy deynladi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Файзиева. Ф.Хужжатли кино режиссураси-Т: 2022.
2. Ефимов Э.М.Замисель фильм зритель. М.1987 г.
3. Убайдуллаев А. Ойнаи жаҳон истиқболлари Т.:1975
4. Жиль Делез. Кино. Ад Маргинем Пресс. 2013.
5. Хлои Дриё «Кино, натция, империя Узбекистан, 1919–1937» Россия. 2013
6. [Малышев В.С.](#) Кинематограф Узбекистана и ВГИК. С иллюстрациями. [Всероссийский государственный институт кинематографии](#) 2018